

## SOMONIYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI

*Urisbayeva Aynurа Aldamuratovna**Navoy viloyati, Konimex tumani 27 mакtab. Tarix fani оqituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyoda IX - X asrlarda hukm surgan Somoniylar sulolasining kelib chiqishi va ularning huquqiy maqomi haqida olib borilgan yangi ilmiy tadqiqotlar natijalari haqida ma'lumotlar berildi.

**Kalit so'zlar:** Balx, Toxariston, Yabg'ular sulolasi, Ismoil Somoniy, Xuroson va Movarounnahr, "Tarixiy Tojikiston", "Somoniylar davlati", Buxoro, Somonxudot.

**Kirish:** Yozma manbalarda Somoniylar sulolasining turli vakillari, ular hukm surgan davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma'lumotlar mavjud. Lekin Somoniylar sulolasining kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar juda ham kam va bir-biriga ziddir. Shuning uchun bu masala shu paytgacha hali aniq yechimini topmagan. Somoniylarning asl kelib chiqishi noma'lum bo'lsa ham, ko'pchilik mutaxassislar orasida ularning kelib chiqishi fors va Sosoniylar sulolasi bilan bog'liq degan xato fikr hukm surib kelmoqda. Bu esa boshqa mutaxassis bo'limgan olimlarning tadqiqotlarida va deyarli barcha ensiklopedik nashrlarda o'z ifodasini topgan. Tojikistonda esa Somoniylarning hukmronlik davri "tojik davlatchiligi" deb ta'riflanadi va Tojikiston Respublikasining davlat ramzlarida ham aks etdirilgan. Dushanbeda Ismoil Somoniyning bahaybat haykali o'rnatilgan, pul birligi "somoniy" deb ataladi va h.k. "Tarixiy Tojikiston" deganda ham tojik olimlari Somoniylar davlatining hududlarini nazarda tutadilar va bu Tojikiston Respublikasining davlat ramzlarida ham o'z ifodasini topgan. 2000 yilda muomalaga kiritilgan Tojikiston milliy pul birligi "somoniy" deb nomlangan. Somoniylaning nomini abadiylas htipish davlat miqyosida olib boriladi. Ismoil Somoniy nomi ko'chalarga, aholi turar joylariga, geografik mavzelarga berildi. Ismoil Somoniy yodgorliklari va boshqalar Dushanbeda Ismoil Somoniyning bahaybat haykali, shuningdek, Ko'lob, Isfara, Tursunzoda va Qo'rg'on-Tepa shaharlarida ham uning haykallari o'rnatildi, va h.k. Bularga qarab, tarixiy mazkur shaxsning yangi qiyofasining vujudga kelgani va mustahkamlanganini ko'rish mumkin [Bolashenkova 2017: 309]. "Tarixiy Tojikiston" deganda ham tojik olimlari Somoniylar davlatining hududlarini nazarda tutadilar. Buxoro va Samarcand shaharlariga bo'lgan da'volar ham shunga asoslangan. E.Rahmon o'zining barcha nutqlarida albatta Somoniylarni eslab o'tadi va ularning "tojik xalqiga" qilgan "xizmatlari" ni aytib o'tadi. Uning ilmiy asoslanmagan fikriga ko'ra, Somoniylar xizmatlaridani biri shundan iborat ediki, arablarning kirib kelishi va islom dinining tarqalishiga qaramasdan ularning hukmronligi davrida "tojik tili" (ya'ni fors va doriy) davlat tili sifatida saqlanib qoldi..." [Bolashenkova 2017: 310]. Bu so'zlardan kelib

chiqadiki, "tojik tili", ya'ni fors tili Markaziy Osiyoda arablar istilosiga qadar ham ishlatilgan, bu ham u yoqda tursin, hatto davlat tili bo'lgan.

### Asosiy qism

Har bir tarixchi va sharqshunosga ma'lumki, Markaziy Osiyoda arablar bosqiniga qadar sug'd, boxtar, xorazm va turk tillari ishlatilgan. Yangi fors tili arablar bosqinidan keyin IX - X asrlarda shakllana boshlagan. Yangi fors tilidagi she'riyat dastlab Safforiylar saroyida qo'llab-quvvatlandi, ulardan keyin esa fors tilida ijod qiluvchi shoirlar Somoniylar saroyida boshpana topdilar. Somoniylarning kelib chiqishi turk bo'lsa ham ular yangi fors tiliga homiylik qildilar. Ammo Somoniylar davrida ham yangi fors tili faqat saroy ichida tor doirada ishlatilgan. Davlat tili sifatida arab tili ishlatishda davom etgan. Somoniylar saroyida shoirlarning ko'pchiligi arab tilida ijod qilganlar, faqat bir nechta shoir ikki tilda - arab va yangi fors tillarida she'r yozganlar [Kamoliddin 2011: 545-551; Kamoliddin 2018: 9-20]. Somoniylarga tobe bo'lgan aholining aksariyatini turklar va ular bilan qo'shilib ketgan sug'dlar tashkil etgan, ular esa turk va sug'd tillarida so'zlashishda davom etganlar [Kamoliddin 2005: 231-241]. Yangi fors tili Buxoro va Samarcand aholisi orasida ham ishlatilgan, chunki arab va fors bosqinchilari mahalliy aholi, ya'ni sug'dlar va turklarni shahardan haydab chuqarib, ularning uylarini egallagan edilar. Somoniylarning qilgan yana bir xizmati, E.Rahmon fikriga ko'ra, shundan iboratki, "ular oriylar yashagan keng hududlarni, ya'ni Movarounnahr va Xuroson o'z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar va u yerlarda markazlashgan hokimiyat o'rnatdilar [Bolashenkova 2017: 311-312]. Birinchidan, o'sha davrda Movarounnahr va Xuroson aholisi juda turli xil edi va uning katta qismini turklar tashkil etgan edi, chunki arablar va forslar bosqiniga qadar Movarounnahr va Toxoriston Turk xonligining tarkibiga kirgan. Xurosonga ham turklar xiyoniylar va eftaliylar davri (IV-V asrlarda) dan boshlab ko'plab kirib borganlar [Kamoliddin 2004: 299-311; 2005: 231-241; 2006: 30 - 36]. Ikkinchidan, hech qanday "Somoniylar davlati" yo'q edi. Rasman ular Abbosiylar xalifalarining voliylari bo'lib, ularga itoat qilganlar va ularning barcha buyruqlarini so'zsiz bajarganlar. Somoniylarning mahalliy ma'muriyati Abbosiylarning boshqaruv tizimi bilan bir xil edi. Ismoil Somoniy hech qachon mustaqillikka intilmagan, aksincha, u bir necha marta Bag'doddagi boshliqlaridan xalifaning shaxsiy soqchilari qatorida xizmat qilishni so'ragan. Ammo har safar uning iltimosi rad etilib, u amir unvonli oddiy voliy lavozimi bilan qanoatlanishga majbur bo'lgan [Kamoliddin 2012: 219 - 265]. Albatta, E.Rahmon, bu davr bo'yicha mutaxassis emas, hatto tarixchi ham emas, Somoniylar tarixi bo'yicha chet ellik olimlarining yangi tadqiqotlarni bilmaydi. Lekin Tojikistonlik olimlar biladilar, ammo o'zlarini bilmaslikka olib, o'z xalqini va prezidentini aldashda davom etmoqdalar. Chunki ularda bu yangi tadqiqotlarga javob berishga yaraydigan hech narsa yo'q, bu yangi tadqiqotlar esa Tojikistonning yolg'onga asoslangan milliy davlatchilik konsepsiyasini butunlay bekor qiladi. Ammo haqiqatni

faqat ma'lum vaqtgacha yashirish mumkin, shunday vaqt keladiki, haqiqat baribir yuzaga chiqadi va g'alaba qozonadi. E.Rahmon Somoniy davlatini "tojiklarning birinchi milliy davlati" deb ataydi, ammo tojiklar davlatchiligining boshlanishi afsonaviy Kayoniylar va Peshdodiydlar davriga to'g'ri kelishiga ishora qiladi. Shu bilan birga u Tojikiston davlatchiligining tarixiga nafaqat Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar sulolalarining hukmronligi davrini, balki Kushonlar va Eftaliylarni ham kiritadi [Bolashenkova 2017: 312]. Demak, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo tarixida "tojiklar" bo'lgan, ularning tarkibiga esa barcha eroniylardan so'zlashuvchi xalqlar kirgan. Bu haqiqiy paneroniy milliy shovinizmdan boshqa narsa emas, shunga o'xshash qarashlarni qirg'izlarning "milliy mafkurasi" kuzatish mumkin, faqat ularda panturkchilikka asoslangan millatchilik da'volari ilgari surilgan. Balki bu sun'iy ravishda tuzilgan mayda "millat" larga xos jihat bo'lsa kerak. Ular orasidagi farq shundan iboratki, qirg'izlar yaqin o'tmishda ham ko'chmanchi qabila hisoblangan, "tojiklar" esa - bu Markaziy Osiyoda turkiy tilli aholi orasida yashovchi turli eroniylardan so'zlashuvchi va kelib chiqishi har xil bo'lgan guruhlardan "qizil ruslar" tomonidan sun'iy ravishda tuzilgan odamlar to'plamidir. Bundan keyin E.Rahmon

"Somoniylarning xalqaro aloqalari va tashqi siyosati" haqida so'z yuritadi, lekin faqat savdo aloqalari haqida misol keltiradi [Bolashenkova 2017: 312]. Shu o'rinda aytish kerakki, Somoniylar chet ellarning hukmdorlari bilan hech qanday diplomatik aloqalarga ega bo'limgan. Bunday huquq faqat xalifalarga tegishli edi. Manbalarda Buxoro shahriga Somoniylar huzuriga faqat bir marta elchilar kelganligi haqida ma'lumot bor. Bu elchilar 327/938-39 yilda amir Nasr ibn Ahmad huzuriga "al-Sin", ya'ni Sharqiy Turkistondan kelgan edilar. Elchilar Nasr ibn Ahmadga al-Sin hukmdorining maktubini keltirgan edilar. Maktubda u amirdan o'tgan 27 yil uchun tovon to'lashni va al-Sin hukmdoriga bo'ysunganini rasman e'tirof etishni talab qilgan edi. Aks holda u Somoniylarga qarshi qo'shin yuborishini, keyin esa Iroqqa va butun xalifalikka qarshi yurish qilishini aytib do'q qilgan edi. Elchilar Nasr ibn Ahmad tomonidan qabul qilindi. Amir ularga quyidagi mazmundagi javob maktubini berdi: "Ey, bolakay, bilginki, men seni va senga o'xshashlarni inkor qilganimning sababi qo'rquvdan, zaifligimdan yoki qo'shinlarim va qurol-yarog'larim yetishmaganidan emas. Menga oliv hukmdorim (ya'ni xalifa) harakat qilishimga buyruq bermaganligi sababli men o'zimni biror harakat qilishdan tiyib keldim. Mening dinimda buyruqsiz biror harakatlarni qilish ruxsat etilmaydi... Shundan keyin al-Sin hukmdori Islomni qabul qildi". Bu parchada, aftidan, Sharqiy Turkistondagi qarluqlarning hukmdori haqida so'z yuritilgan. Mazkur elchilar bilan Somoniylar tomonidan Abu Dulaf ismli arab Sharqiy Turkistonga boqdi. Ko'p o'tmay qarluq hukmdori islom dinini qabul qilib, Somoniylar bilan qarindoshlik aloqalari o'rnatdi. Manbalarda Somoniylarning yaqin yoki uzoq mamlakatlarning hukmdorlari bilan aloqalari haqida bundan boshqa ma'lumot yo'q.

## Muhokama

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Tojikistonda hukumat darajasida tarixni soxtalashitirish olib borilmoqda. Shuning uchun Somoniylar sulolasining asl kelib chiqishini aniqlash hozirgi kunda tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Somoniylarning kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi manbalar ko'p emas. Ularning ko'pchiligi so'nggi asrlarga mansub. Bu manbalarda Somoniylarning ajdodlari turk bo'lganligi qayd etilgan. Somoniylarning bobokaloni Somon-xudotning shajarasida turkcha ismlar borligi aniqlangan. Lekin shu vaqtgacha bu ma'lumotlar ilmiy jihatdan ishonchli hisoblanmas edi. Chunki bu "tojik xalqi va uning davlatchiligi" konsepsiyasiga zid edi. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Somoniylarning kelib chiqishi qadimgi turklar bilan bog'liq bo'lganligiga ishora qiluvchi asl manbalar topildi. Xususan, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Somonxudotning bobokaloni Bahrom Chubin Sosoniylarning harbiy xizmatida bo'lgan o'g'uz qavmiga mansub sarkarda bo'lgan. U Xuroson voliysi etib tayinlangan va Balx shahrida yashagan. Bu yerda unga qarashli yerlar va mulklar bo'lgan. 590-yilda u Sosoniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, mag'lubiyatga uchragandan so'ng turklar tomonga qochib o'tgan va Buxoroda turk xoqonining qiziga uylangan. Ana shu oilaning avlodlari Somonxudotning ajdodlari bo'lgan. Taxmin qilinishicha, ular Farg'ona vodiysidagi Qubo shahrida yashaganlar. Ayrim manbalarda yozilishicha, Somoniylarning ajdodlari islomdan oldin butun Mavarounnahr hukmdorlari bo'lganlar. Bu ma'lumot shunga ishora qiladiki, Somoniylar o'zlarini turk xoqonlarining avlodlari deb hisoblaganlar. Chunki islomga qadar butun Mavarounnahr hukmdorlari faqat turk xoqonlari bo'lishi mumkin edi. Bu ma'lumotni aniq tasdiqlovchi dalil ham topildi. Buyuk Britaniyadagi Oksford universitetining numizmatik fondida amir Mansur ibn Nuh tomonidan 358/968-69 yilda Buxoroda zarb etilgan kumush dirham saqlanadi. Uning old tarafida arabcha yozuvlar, orqa tarafida esa o'ng tomonga qarab turgan hukmdor surati tasvirlangan. Uning yuz tuzilishi, qulog'idagi ziragi va boshidan orqasiga osilib turgan kokili uning qadimgi turk hukmdori ekanligidan dalolat berib turibdi. Taxmin qilinishicha, bu suratda Somoniylarning islomdan oldingi ajdodlaridan biri, ehtimol, Somonxudot yoki turk xoqoni El-tegin tasvirlangan. Turk xoqonligi Toxaristonni ishg'ol qilgandan keyin (618-yil) Farg'onadagi Bahrom Chubin avlodlarining ba'zilari Balx shahriga kelib, ilgari bobolariga tegishli bo'lgan mulk yerlarini o'zlariga qaytarib olganlar. Ulardan biri Barmak ismli kohin bo'lib, Balxda Navbahor ibodatxonasiaga asos solgan. Uning avlodlari Navbahor ibodatxonasida kohinlik ishini davom etdirib, ular ham Barmak deb atalganlar. Arablar Navbahor ibodatxonasini xarobaga aylantirgandan keyin Barmak islom dinini qabul qildi va uning avlodlari Barmakiylar arablarning ma'muriyatida xizmat qildilar. Shunday qilib, Barmakiylar va Somoniylar oilalari o'zaro qarindosh bo'lganlar va Bahrom Chubinning avlodlari hisoblanganlar. Arablar O'rta Osiyoga bostirib kelganda, Somon-xudot

Farg'onadan Balxga, u yerdan esa Marv shahriga kelib, bu yerda islom dinini qabul qilgan va Xuroson voliysi al-Ma'munning Marvdagi saroyida xizmat qilgan. 204/819-820 yilda Bag'dodga ketishdan oldin al-Ma'mun yaxshi xizmatlari uchun uning 4 ta nabirasini Movarounnahr shaharlariga hokim etib tayinlashni buyurgan. Ular dastlab Xuroson voliylari Tohiriylarg'a bo'ysinib xizmat qilganlar. 261/874-875 yildan boshlab Nasr ibn Ahmad yangi tuzilgan ma'muriy birlik Movarounnahr voliysi deb e'lon qilingan. O'rta asr manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Somoniylarning ajdodlari islom dinini qabul qilishdan oldin otashparast bo'lganlar, ya'ni zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Lekin ularning tangalari, Buxorodagi oilaviy maqbarasi va Samarqanddagi saroyining devorlarida tasvirlangan ramzlar zardushtiylik diniga hech qanday aloqasi yo'q. Bu ramzlar buddaviy din yoki moniylik bilan bog'liqdir. O'rta asrlarda har qanday maxfiy ma'lumot ko'pincha ramzlar orqali ifoda etilgan. Masalan, ilk islom davrida taqiqlangan sufiylik ta'limotida ham ramzlar ko'p ishlatilgan. Bu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, Somoniylarning ajdodlari buddaviylik diniga yoki moniylikka e'tiqod qilganlar va bu ramzlarni ishlatganlar. Islom davrida Somoniylar ajdodlarining ramzlarini tangalarida, maqbara va saroy devorlarida ifoda etish orqali ajdodlarining ruhlarini yod etib, ularga hurmat izhor etganlar. Bu bilan ular o'zlarini ajdodlar bilan ma'naviy bog'liqlikda deb his etganlar. Somonxudotning asl ismi Arquq bo'lgan. "Somon" so'zi sanskrit tiliga mansub bo'lib, buddaviy martabalaridan biri hisoblangan. O'g'uzlarning rivoiy kitoblarida Somon-xudot "Somon-yabg'u" deb atalgan va o'g'uzlarning ajdodlari qatorida tilga olingan. Al-Muqaddasiyning geografik asarida "Somon turklari" qayd etilgan. Ma'lumki, Somoniylarning qo'shinlari, harbiy qo'mondonlari va saroy xizmatchilari asosan turklardan iborat bo'lgan. Lekin Somoniylar saroyda turk tilini joriy qilishga urinmaganlar. Uning o'rniga yangi fors tilini qo'llab-quvvatlaganlar va bu tilda ijod qilgan shoirlarga homiylik qilganlar. Bu xususiyat ularidan keyin hukmronlik qilgan turk sulolalari - G'aznaviylar, Qoraxoniyalar, Saljuqiylar va Xorazmshohlarga ham xos bo'lgan. Mo'g'ullar, Temuriylar va Shayboniylar ham bu an'anani davom ettirganlar. Hozirgi tarixshunoslikda Somoniylar hukmronligi davrini "Somoniylar davlati" deb ta'riflash qabul qilingan. Lekin aslida ular huquqiy jihatdan mustaqil bo'lmaniganlar. O'sha davrning qonunchiligiga ko'ra, Somoniylar Abbosiy xalifalarining Movarounnahrdagi noiblari hisoblanganlar. Ular zarb etgan tangalarda birinchi o'rinda xalifalarning ismlari qayd etilgan. Xalifalarning maxsus yorlig'i (manshur) siz ularning hukmronligi qonuniy hisoblanmagan. Juma namozidan oldin o'qiladigan xutba (va'z) da xalifalarga hamdu-sano o'qish majburiy bo'lgan. Somoniylarga qarashli yerlar bilan xalifalik yerlari o'rtasida davlat chegarasi bo'lmanigan. Somoniylar chet ellarning hukmdorlari bilan diplomatik munosabatlar olib bormaganlar. Bunday huquq faqat xalifalarga tegishli bo'lgan. Shunga qaramasdan Somoniylarning hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixining ajralmas bir bosqichi hisoblanadi. Chunki bu davrda o'zbek xalqining asosiy o'zagi shakllandı, uning yashash

hududi belgilandi, boshqaruv tizimi shakllandi va g'oyaviy asoslari yaratildi. Shuning uchun Somoniylarning ramzları Tojikistonda emas, O'zbekistonda joriy qilinishi lozim. Toshkentda Amir Temur va Temuriylar muzeyiga o'xshash Ismoil Somoniy va Somoniylar muzeyi tashkil etilishi, Ismoil Somoniy haykali o'rnatilishi, Somoniylar tarixiga bag'ishlangan xalqaro konferensiylar o'tkazilishi kerak. Bu konferensiyalarga birinchi navbatda Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlardan, shu jumladan Tojikistondan ham olimlar ishtirok etishi kerak, chunki Somoniylar tarixi Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak merosidir. Buxoro butun O'rta Osiyoning poytaxti edi. Shu sababli, manbalarda "Somoniylarning ajdodlari islomdan oldingi davrda butun Movarounnahrning hukmdorlari bo'lganlar", deb yozilgan. Bu ma'lumotdagi hukmdorlar faqat turk xoqonlari oilasiga mansub shaxslar bo'lishi mumkin edi. Arablar Buxoroga birinchi marta yurish qilganlarida, shaharda turk xoqoni va uning oilasini uchratdilar, o'sha vaqtda shahar aholisi turklar va turklashgan buxoroliklardan iborat edi. Qutayba ibn Muslim Xuroson amiri bo'lganda, Buxoroni bosib olib, mahalliy aholini har bir uyning yarmini arablarga bo'shatib berishga majburladi, so'ngra bu uylarga arab askarlarini joylashtirdi. Shundan boshlab, Buxoro arab va fors istilochilarining tayanch nuqtasiga aylanib, ular bu yerdan turib turklar va sug'dlarga qarshi bosqinchilik urushlari olib bordilar. Keyinchalik Buxoro islom madaniyatining asosiy markaziga aylandi va bu yerda asosiy muloqot tili avval arab tili edi, keyinchalik uning o'rnini fors tili egalladi. Fors tili Buxoroda ruslar bosqiniga qadar an'anaviy tili bo'lib keldi. Shu sababli, bu shaharga ko'chib kelgan barcha odamlar, shu jumladan turklar ham, asta-sekin fors tiliga o'tganlar. Buxoro turk hukmdorlari sulolalari - Somoniylar (IX-X asrlar) va Shayboniylar (XVI-XVIII asrlar), so'ngra Mang'itlar (XIX - XX asr boshlari) ning poytaxti bo'lgan. Yigirmanchi asr boshida mashhur jadidchi Abdurauf Fitratning ona tili fors tili bo'lsa ham, u o'zini o'zbek deb hisoblagan va hatto panturkchilikda ayblangan. Shuning uchun bugungi kunda ham buxoroliklarning ko'pchiligi garchi fors tilida so'zlashsalar ham o'zlarini o'zbek deb biladilar. Samarqand ham shunga o'xshash holat bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy va boshqa bir qancha o'rta asr mualliflariga ko'ra, Samarqand shahrining nomi "semiz shahar" degan ma'noni bildirgan. Bu rivoyat bo'lsa-da, unda haqiqat bor. Har qalay bu shahar nomining kelib chiqishi hali ham ishonchli tarzda izohlanmagan. Arab bosqiniga qadar Samarqand Turk xoqonligining asosiy shaharlaridan biri edi.

### Xulosa

XIV - XV asrlarda Samarqand Amir Temur va Temuriylarning poytaxti bo'lganda, Buxoro va Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi, shunda bu yerga Erondan minglab me'morlar, hunarmandlar va quruvchilar taklif etildi, chunki Eron Temuriylarga qarashli yer edi. XVI-XVIII asrlarda, Shayboniylar Safaviylar bilan uzoq vaqt olib borgan urushlar davomida asir qilib olingan barcha eronliklar qulga aylantirilib, Buxoro va Samarqandda qoldirilgan. 1810-yilda Marvdan Turkistonga

taxminan 40 ming eroniy oilalari ko'chirilgan va asosan Samarqand va Buxoro atroflariga joylashtirilgan edi. Ularning bir qismi turk, lekin asosiy qismi fors edi. XIX-XX asr boshlarida qul savdosi bilan asosan hindlar va turkmanlar shug'ullanganlar, ular Turkistonning qul bozorlariga Erondan minglab qullarni keltirganlar. Buxoroda ham katta qul bozori bor edi. Fors qullari eng arzon edi - bir rus qulining narxiga 6 ta fors qullarini sotib olish mumkin edi. XIX asr o'rtalarida Buxoro aholisining chorak qismini o'zbeklar, to'rtdan uch qismi esa fors qullari tashkil qilar edi. Erondan odamlarni ko'chishlar 1917-yildagi rus inqilobiga qadar davom etgan. Shi'a mazhabiga e'tiqod qiluvchi aholining ko'pligi sababli 1910-yilda Buxoro xonligida sunniylar va shi'alar o'rtasida katta to'qnashuv sodir bo'ldi. Buxoro va Samarqand shaharlarining aholisi ana shunday shakllangan, lekin ulardag'i hokimiyat Turk xoqonligi davridan boshlab rus istilosiga qadar har doim turklarning qo'lida bo'lgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2000.
2. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. T., «O'qituvchi», 2001.
3. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., 2008.
4. Murtazaeva R.H. va b. O'zbekiston tarixi (Ma'ruzalar matni). T.: 2000.
5. Raxmonov N. Turk xoqonligi. T., 1993